

NOVERBAL ALOQADA MADANIY FARQLAR

Dehqonboyeva Madina

madinadehqonboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda ogʻzaki va noverbal (soʻzsiz) muloqot vositalari oʻrganiladi. Unda muloqotda noverbal vositalardan foydalanishdagi madaniy farqlar tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: muloqot, pragmatika, madaniy farqlar, ogʻzaki va noverbal vositalar.

Noverbal vositalarning nutq jarayonidagi ishtiroki va ularning soʻzlovchining kommunikativ maqsadiga koʻra turlicha maʼnolarni ifoda etish qobiliyati, bir tomondan, ularning pragmatik funksiyasi, ikkinchi tomondan esa til soʻzlovchisining madaniy xususiyatlari bilan bogʻliq.

Noverbal vositalarning sababi, funksiyasi, nutq holatiga munosabati va pragmatik taʼsirni taʼminlashdagi oʻrni lingvistik antropologiya doirasida muhokama qilinadi. Olimlar noverbal vositalarning madaniy tafovutlari haqida ikki asosiy fikrga ega: bir guruhi noverbal vositalar butun insoniyatga tushunarli universal til deb hisoblaydi, boshqalar esa bu fikrni inkor etadi.

Masalan, Charlz Darvin imo-ishoralarni tugʻma va universal deb taʼriflagan, Kvintilian esa qoʻl harakatlarini barcha insonlar uchun umumiy til deb hisoblagan. Shuningdek, Eibl-Eibesfeldt va A. Kostich ham noverbal vositalarni universal deb bilishgan. Ammo R. Berdvistel, M. Argayl, P. Ekman va D. Morris bunga qoʻshilmaganlar. Professor R. Berdvistel yuz ifodalarining 250 000 dan ortiq koʻrinishlari mavjudligini taʼkidlagan.

Ularining ayrimlari barcha madaniyatlar uchun umumiy, boshqalari esa faqat maʼlum madaniyatga xos. Madaniyatlar oʻrtasidagi til farqlari tufayli noverbal vositalar ham ogʻzaki til kabi madaniy tafovutlarni namoyon etadi. Bizningcha, insonning ichki his-tuygʻularini ifodalovchi noverbal vositalar universal, yaʼni hammaga tushunarli, lekin insonning atrof-muhit bilan munosabatini, fikrni ifodalash yoki tushuntirish usulini koʻrsatuvchi vositalar esa madaniyatga koʻra farq qiladi. Shu sababli, bunday vositalarni tabiiy (tugʻma) va ijtimoiy (tarbiya bilan shakllangan) noverbal vositalarga ajratish mumkin.

Bugungi globallashuv jarayonida, barcha millat va elatlar oʻz manfaatlari yoʻlida birlashishga intilmoqda. Ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash gʻoyalar va tushunchalar darajasiga koʻtarildi. Oʻzbekiston hududi tarixan turli millat va elat vakillari yashab kelgan joy boʻlib, har biri oʻz tili, dini, madaniyati, tarixi, urf-odatlar va qadriyatlariga ega. Bu esa til xilma-xilligini keltirib chiqargan.

Har bir xalqning oʻziga xos ogʻzaki va noverbal muloqot shakllari mavjud. Sosiolingvistika sohasida madaniyatlararo muloqot xalqlarni bir-biri bilan bogʻlashda muhim rol oʻynaydi. Shu bois, madaniyatlararo aloqa masalasi tobora dolzarb boʻlib bormoqda. Oʻzbek xalqiga xos urf-odatlar, qadriyatlar va muloqot madaniyatining ommalashib borishi bilan birga, mamlakatda boshqa millat vakillariga ham oʻz tillari va madaniyatlarini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Shuningdek, boshqa millat vakillarining oʻzbek milliy bayramlari, qadriyatlar va urf-odatlariga hurmat bilan qarashi quvonarlidir. Ular bu jarayonda ogʻzaki bilan bir qatorda

noverbal vositalarni ham faol qo'llamoqda, bu esa ijobiy holatdir. Biroq o'zbek tilidagi ayrim paralingvistik vositalar (ya'ni so'zsiz imo-ishoralar) boshqalar uchun darhol tushunarli bo'lmashligi mumkin. Masalan, "Navro'z", "Xotira va qadrlash kuni" yoki "Mustaqillik kuni" marosimlarida turli millat vakillari sumalak aralashtirishda qo'lni aylantirish, bayroq hilpiratishda vertikal harakat, o'ng qo'l barmoqlari bilan ovqatga taklif qilish, yoki ko'krakka qo'l qo'yib salomlashish kabi harakatlarni o'zbek urf-odatining bir qismi sifatida qabul qilib, qo'llamoqda.

Ammo ayrim hududlardagi o'zbek urf-odatlari yoki qadriyatlari boshqa millat vakillarida tushunmovchilik keltirib chiqarishi ham mumkin. Shu sababli milliy madaniyatni ifodalovchi noverbal vositalarni o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, paralingvistik vositalar milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlashning eng samarali usullaridan biridir. Ular so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan his-tuyg'ularni kelajak avlodga yetkazishga yordam beradi.

Noverbal vositalar musiqa, teatr, haykaltaroshlik, rasm, she'riyat va hunarmandchilik kabi san'at turlarini tushunishda ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli, ular lingvistlar bilan bir qatorda sotsiologlar, psixologlar, madaniyatshunoslar, faylasuflar, tarixchilar va san'atshunoslar uchun ham tadqiqot obyekti bo'lib qolmoqda. Har bir xalqning madaniyati, ma'naviyati va urf-odatlari ularning umuminsoniy qadriyatlarga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston xalqi qadimiy madaniyat sohibi sifatida o'zining ming yillik hayot tajribasini aks ettiruvchi noverbal vositalarga ega. O'zbek muloqotida ishlatiladigan har bir imo-ishora xalqning dunyoqarashi, fe'l-atvori, madaniyati va ruhiyatini ifodalaydi. Masalan, amerikaliklarning kayfiyati ularning tabassumidan bilinadi, lekin boshqa his-tuyg'ularini aniqlash qiyin.

Ular suhbat chog'ida tabassumni hurmat va samimiyat belgisi deb biladi. Inglizlar esa jiddiylikni afzal ko'radi, ruslar esa sababsiz tabassum qilishni odat deb hisoblamaydi, chunki ular uchun bu sun'iy muomala belgisi hisoblanadi. Noverbal muloqotni ifodalovchi urf-odatlar tizimi xalqning milliy madaniyatini dunyoga tanitishda muhim ahamiyatga ega.

Ba'zi tadqiqotchilar bunday urf-odatlarni til bilan teng deb hisoblaydi. Masalan, T. Nikolaeva milliy madaniyat va urf-odatlarni tildan ajralmas hodisa sifatida o'rganish zarurligini ta'kidlagan.

REFERENCES:

- 1.Darvin Ch. The Expression of the Emotions in Man and Animals – London: John Murray. 1st edition, 1872; Eibl-Eibesfeldt. Ethology, the biology of behavior. Hold. – New York, 1970; Kostić A. Govor lica.Niš:Filozofski fakultet.
- 2.Ekman P. Emotional and conversational nonverbal signals. – Netherland, 2004. – P. 40; Burrow J. Gestures. In Gestures and Looks in Medieval Narrative. –Cambridge: Cambridge University Press. (Cambridge Studies in Medieval Literature, pp. 12), 2002. – P. 12; Michael Argyle. Bodily communication. – Cambridge University Press. – P. 75.
- 3.Stella Ting-Toomy. Communicating Across Cultures, First Edition. – New York, 1999.



4.Николаева Т., Успенский Б. Языкознание и паралингвистика // Лингвистические исследования по общей и славянской типологии. –М.: Наука, 1966. –С. 65.

5.Pazilova, N., & Iskhakova, A. (2023). ON THE STUDY OF PHRASEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH. Models and methods in modern science, 2(12), 51-53.

6.Muhammadqosimovna, P. N. (2023). Semantic Peculiarities of Homonymy in English and Uzbek. Texas Journal of Philology, Culture and History, 14, 19-23.

7.Pazilova, N., & G'Opurova, X. (2022). Analysis of written and spoken texts in English and Uzbek. Science and innovation, 1(B8), 964-969.

8.Pazilova, N., & G'ofurova, G. (2022). SPECIFIC FEATURES AND THE PROBLEMS OF ALLITERATION IN MODERN ENGLISH AND UZBEK. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(5), 242-249.